

**BOLALAR OG'ZAKI NUTQINI RIVOJLANTIRISHDA O'YIN METODIKASIDAN FOYDALANISH**

**Botirova Mavjuda Jabborovna**

*Buxoro viloyati Xalq ta'limi boshqarmasi*

*G'ijduvon tumani XTB tasarrufidagi*

*10- umumta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi*

**Xamrayeva Zuxra Fazliyevna**

*onatili va adabiyot fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada maktabgacha ta'limda bolalar og'zaki nutqini rivojlantirishda o'yin va o'yinchoqlarning ahamiyati haqida fikr yuritilgan.*

**Kalit sozlar:** *Tarbiyalanuvchi, o'yinchoq, qo'g'irchoq, tarbiya, ta'lim, ertak, nutq o'stirish, maktabgacha ta'lim, yozuv, milliy o'yinchoqlar, milliy qadriyatlar.*

Maktabgacha yoshdagi bolaning nutqini rivojlantirish uchun asosiy o'yin vazifalaridan biri bu bolaning so'zlarini boyitish, tushunchalarni o'zlashtirishda, ishlatilgan so'zlarning polisemiyasini va ularning semantik soyalarini tushunishda. O'yinlarda nutq faoliyati rivojlanadi, ona tiliga qiziqish va e'tibor tarbiyalanadi. O'yin bolani har tomonlama har jihatdan to'g'ri tarbiyalashga qaratilgan faoliyatdir. O'yin insonni barkamol avlod sifatida rivojlantiradi. O'yinchoq bu narsaning o'ziga xos predmeti bo'lib, bolani maqsadini bilib oladi va shu maqsadga yo'naltirishga ko'maklashadi. Ko'pgina tadqiqodchi olimlar shuni isbotladiki, o'yinchoqlar orqali bolalar kelajakda o'zlari duch keladigan vaziyatlarga tushadi va ulardan qanday vaziyatlardan chiqishga o'rgatadi. Bola o'yinchoqlar bilan tanishish, o'ynash orqali ular atrof-olam bilan tanishadi. Bolalar o'zlari orasida bo'ladigan munosabatlari, bir-birlariga muomila madaniyatlari, o'zlari orasida xuddi kattalardek gaplashishlarini xoxlashadi. O'yinchoqlar orqali bola sizga, atrofdegilarga nima demoqchiligini tushuntira oladi. Ular o'yinchoqlar orqali borliq haqidagi bilimlarini boyitishadi.



Bolaning nutqining paydo bo'lishi va rivojlanishini o'rganish nafaqat psixologiya nuqtai nazaridan dolzarb, balki shaxsiy va ijtimoiy ahamiyatga ham ega.<sup>1</sup> Nutq kommunikativ faoliyat tarkibidagi tarkibiy element, bu esa o'z navbatida bolaning bilish faoliyatini rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Aloqa va nutq orqali bola insoniyatning ijtimoiy-tarixiy tajribasi xazinasidan ma'lumot olishni o'rganadi. Maktabgacha yoshdagi og'zaki monologik nutqni rivojlantirish maktabda muvaffaqiyatli o'qitish uchun asos yaratadi.

O'yin nazariyasini va o'yinchoqlarning bolaning shaxsiyatini rivojlantirishdagi o'rni haqida L.S.Vygotskiy, A.N.Leontiev, D.B.Elkoninlar samarali izlanishlar olib borgan<sup>2</sup>. Buyuk rus olimi A. M. Gorkiy "O'yinchoq, avvalambor bolani hayratda qoldiradi va bu tuy'u tushunishning boshlanishidir". O'yinchoq bolani atrof-muhit bilan tanishtiradi, ularni o'rgatadi, taassurotlarini mustahkamlaydi va muloqotga bo'lgan ehtiyojni qondiradi<sup>3</sup>. O'yinchoq bola tug'ilganidan to 3 yoshigacha bo'lgan davrda katta ahamiyatga ega. Chunki ular o'ynash davomida ozlarini rag'batlantiradi, o'yin tashkil etish qonun qoidalarini o'rganadi: qogirchoq bilan ular ona va qiz bo'lib oynasha, raketa yoki moshina, samolyot bilan ular haydovchi rolini o'ynashga kirishib ketadi. O'yinchoqlar orqali o'yin qay tarzda ketayotganini va nima maqsad borligini tushuntira oladi. Bola ota-onaga ichidagi his tuyg'ularini o'yin orqali yetkazib beradi. Bola o'yin mazmuni o'yinchoqqa bog'liqligini bilib, uning ijodiy faoliyatini shakllantiradi. Bola o'yinchoq o'ynash orqali o'zini dunyosini shakllantirib, yangi g'oyalari bilan o'rtoqlashadi va biz shu g'oyalarni rivojlanishiga yordam berishimiz kerak. O'yinchoqlar bolalar uchun eng kuchli tarbiyaviy ta'sirga ega, chunki hamma narsalar xilma-xilligi bilan tasvirlanadi. Hayvonlar, o'simliklar, transportlar, turli xil asbob-anjomlar, har xil shakllar, hattoki, inson o'zi ham qo'g'irchoqlar sifatida o'yinchoqqa aytantirilgan. O'yinchoqlar bola hayotida ilk hayot tasavvurlarini shakllantirib, asta sekinlik bilan rivojlantiradi. Bola o'yinchoq oynab osha muhitga kirishadi. Misol qilib oladigan bolsak bola shifokor qo'g'irchoq'ini o'ynash vaqtida o'zini shifokorday gaplarini gapirib, bemorlarga yordam berishga urinishadi. Bola ulg'aygan sari o'yinchoqlarni saralay boshlaydi. Ular o'zlariga manfaat keltiruvchi yoki o'yin payti bola nimani xohlayotganiga qarab o'yinchoqni tanlaydi. O'yinchoq bolani har tomonlama, nutqini, xotirasini, hissiyotlarini, fikrlashini rivojlantirib, shakllantiradi. N.K.Krupskaya "O'yinchoqlar bolalarni atrofdagi haqiqiy dunyo bilan tanishtirish, ularning hissiyotlarini rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega" deb yozgan.<sup>4</sup>

#### TADQIQOT METODOLOGIYASI

O'yinchoqlarga turli xil tasniflar mavjud bo'lib ular: Didaktik o'yinchoq, ta'limiy o'yinlar, teatr o'yini, sport o'yini va musiqiy o'yinlarga ajratiladi. Didaktik o'yinchoqlar o'yin jarayonida bolalarga o'zlarining turmush tarzi, tabiati, har xil hodisalari haqida o'rgatadi. Bolalarning bilimini chuqurlashtiradi. Didaktik o'yinlar bolalar nutqini rivojlantirishga katta ta'lim beradi. Ta'limiy o'yin bolalarga o'yin orqali ta'lim-tarbiya o'rgatadi. Bunda o'yin bilan bir qatorda bilim, malaka egallanadi. Teatr o'yini

zamonaviy teatrda "o'yin" atamasi aktyor tomonidan turli ifoda vositalari - nutq, mimika, imo-ishora, har xil harakatlar orqali foydalanuvchiga yetkazib berish. Sport o'yini bolalarni sog'lom bo'lishiga qaratilgan harakatli o'yinlar. Bolalar sport o'yinlari orqali kun bo'yi tetik, quvnoq, karfiyati a'lo bo'lib yuradi. Musiqiy o'yin bolalar bu o'yin orqali musiqaga qiziqishini shakllantiradi. Musiqiy qobiliyatlari rivojlantiradi. Bu o'yin bolalarga quvonchli va quvnoq daqiqalar beradi. Bolalarda o'yinlar orqali milliy urf-odatlarimiz ham shakllanadi. Bolalarga har bir o'yinni tushuntirish kerak.

#### **TAHLIL VA NATIJALAR**

O'yinchoqlar to maktabga chiqqunicha bola hayotida katta o'rin egallaydi. Bolalar yoshi kichkina paytida barcha o'yinchoqlarni o'ynashga urinadi. Keyinchalik yoshi ulg'aygan sari o'yinchoqlarni saralay boshlaydi. O'zlariga ayni vaqtda nima kerakligini yon-atrofdagilarga o'yinchoqlar orqali yetkazadi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kichik guruh (3-4 yosh) bolalariga asosan qo'lda bemalol o'ynashga mo'ljallangan o'yinchoqlar o'ynaladi. Tig'li, uchli o'yinchoqlar bola hayoti uchun xavfli o'yinchoqlar o'ynashi mumkin emas. O'rta guruhda (4-5 yosh) bolalar kichik guruhdan farqli ravishda ozgina murakkabroqdir. Unda bolalar tarbiyachi bilan birga o'yinchoqlar orqali rollar ijro etishlari mumkin. Ijro etayotgan rollari orqali bolada nutq ham rivojlanadi. Yangi so'zlar o'rganadi. Talaffuzidagi kamchiliklar ham asta-sekin to'g'irlanib boriladi. Katta guruh (5-6 yosh) bolalar bemalol o'zlari o'yinchoq o'ynashlari mumkin bo'ladi. O'zlari orasida rollar bo'lib olinib turli o'yinlar va o'yinchoqlar orqali rollar ijro etiladi. Tayyorlov guruhi (6-7 yosh) bolalar endi o'yinchoqlarni bemalol tanlay oladi.

Bolaning og'zak nutqini rivojlantirish va uning so'z boyligini boyitish vositasi sifatida o'yinchoqlardan foydalanish tez samara beradi. O'yinchoq bolada lug'atni mustahkamlash va faollashtirish imkoniyatini yaratadi, yangi so'zlarning manbai bo'lib xizmat qiladi. O'yinchoq bolada faqat ijobiy his-tuyg'ularni, gapirishga bo'lgan istakni uy'otadi. Bolaning tasvirlash va hikoya qilishga bo'lgan qiziqishi orqali bilimlari ortib boradi.

#### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXARI:**

1. Shodiyeva Q. «Maktabgacha yoshdagi bolalarni to'g'ri talaffuzga o'rgatish». -T.: "O'qituvchi", 1990
2. O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori. -T.: 2016 y.
3. Qurbonova Maftuna, Methods for improvement of training competitions for classifications leading on the organization of independent works // кономика и сопиум, 2020.